

## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI MISOLIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH MEKANIZMI

Ruzmetova Gulira'no Atabekovna

Bank-moliya akademiyasi magistranti

[guliranoruzmetova19@gmail.com](mailto:guliranoruzmetova19@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15411014>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali misolida oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni rejalashtirish mexanizmi har tomonlama tahlil qilingan. Rejalashtirish bosqichlari, samaradorlikni baholash formulalari, moliyaviy smetalar va simulyatsiya markazlari xarajatlari real misollar asosida yoritilgan. Dinamik tahlil orqali 2020 va 2024-yillar kesimidagi xarajatlar taqqoslab, investitsiya ustuvorliklari asoslab berilgan.

## МЕХАНИЗМ ПЛАНИРОВАНИЯ РАСХОДОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ПРИМЕРЕ УРГЕНЧСКОГО ФИЛИАЛА ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Рузметова Гулираъно Атабековна

магистрант Академии банковского и финансового дела

[guliranoruzmetova19@gmail.com](mailto:guliranoruzmetova19@gmail.com)

**Аннотация.** В статье рассматриваются механизмы планирования расходов в высших учебных заведениях на примере Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии. Описаны этапы планирования, формулы оценки эффективности, структура бюджета и расходы на симуляционные центры на основе реальных данных. Динамический анализ сравнивает показатели 2020 и 2024 годов и обосновывает инвестиционные приоритеты.

## THE COST PLANNING MECHANISM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: A CASE STUDY OF THE URGENCH BRANCH OF THE TASHKENT MEDICAL ACADEMY

Gulirano Atabekovna Ruzmetova

Master's Student, Academy of Banking and Finance

[guliranoruzmetova19@gmail.com](mailto:guliranoruzmetova19@gmail.com)

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of cost planning mechanisms in higher education institutions, exemplified by the Urgench branch of the Tashkent Medical Academy. It discusses planning stages, efficiency formulas, budget structures, and simulation center costs based on real data. A dynamic comparison between 2020 and 2024 illustrates financial priorities and investment trends.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida raqobatbardoshlik, sifat va barqarorlik mezonlariga javob beruvchi boshqaruv tamoyillari asosida xarajatlarni rejalashtirish mexanizmlari shakllanmoqda[1]. Bugungi global ta'lim muhitida samarali moliyaviy rejalashtirish oliy ta'lim muassasasining nafaqat faoliyatini, balki strategik rivojlanishini ham belgilovchi omilga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda respublikada oliy ta'limni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va xalqaro standartlarga mos tizimni

shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning muhim jihatlaridan biri – bu oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, xususan, xarajatlarni samarali rejalashtirish tizimini joriy etishdir.

O'zbekiston Respublikasida Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yo'riqnomalari asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyaviy jihatdan mustahkamlash yo'lga qo'yilgan[2]. Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yo'riqnomalari asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini moliyaviy jihatdan mustahkamlash yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2020-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillik berilishi, ularning o'z byudjetlarini shakllantirish va sarflash huquqi kengaytirilgan. Bu esa xarajatlarni rejalashtirish mexanizmini yanada dolzarb va zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirishni talab qiladi.

### **Mavzu bo'yicha abiyotlar tahlili**

Tahliliy jihatdan, maqolada foydalanilgan adabiyotlar turli manbaalardan — xalqaro tashkilotlar hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va Toshkent tibbiyot akademiyasining ichki hujjatlaridan iborat. OECD[5] tomonidan chop etilgan xalqaro nashrlar global miqyosdagi ta'lim moliyasini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni yoritadi. Bu manbalar maqolada taqdim etilgan mexanizmlarni xalqaro mezonlar bilan solishtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari esa oliy ta'lim tizimini moliyaviy mustaqillikka o'tkazish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning normativ asosini belgilab beradi. Xususan, 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qaror oliy ta'lim muassasalarida resurslardan foydalanish tartibini aniqlab, rejalashtirish jarayonida huquqiy asos yaratadi. Shuningdek, TTA Urganch filialining simulyatsiya markazi bo'yicha ichki hujjati (2020-yilgi smeta) maqolada real raqamlar asosida dinamik tahlilni amalga oshirish uchun foydalanilgan asosiy empirik manba hisoblanadi. Bu ma'lumotlar asosida 2020 va 2024-yillardagi xarajatlar strukturasining o'zgarishi tahlil qilinib, investitsiya ustuvorliklari aniqlangan. Shunday qilib, adabiyotlar maqolaning nazariy, metodologik va amaliy bazasini shakllantirib, asoslangan ilmiy yondashuvga xizmat qiladi.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda sifatli va miqdoriy yondashuvlar qo'llanildi. Empirik ma'lumotlar sifatida TTA Urganch filialining 2020-yilgi va 2024-yilgi xarajatlar smetasi asos qilib olindi. Moliyaviy samaradorlikni baholash uchun quyidagi formulalar ishlatildi:


- Talabaga to'g'ri keladigan yillik xarajat
- O'qituvchilar mehnat unumdorligi
- Grantlar ulushi

Bundan tashqari, xarajatlarning yo'nalishlar bo'yicha grafik va jadval ko'rinishidagi taqsimoti ham tahlil qilindi.

### **Tahli va natijalar muhokamasi**

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy samaradorlikni aniqlash, mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanish, budjet smetasini puxta shakllantirish va investitsiya ustuvorliklarini belgilashda turli matematik formulalar va ko'rsatkichlar muhim o'rin egallaydi. Bu formulalar orqali oliy ta'lim muassasasining moliyaviy faoliyati nafaqat umumiy darajada, balki alohida sohalar ta'lim sifati, infratuzilma, ilmiy izlanishlar va professor-o'qituvchilar mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Xarajatlarning asoslanganlik

darajasini aniqlash, grantlar va tashqi moliyaviy manbalar ulushini baholash, har bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha yillik xarajatni hisoblash, shuningdek, o'qituvchilarning o'rtacha yuklamasini aniqlash orqali xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. Shu sababli quyidagi formulalar oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda (1-rasm):



**Talabaga to'g'ri keladigan yillik xarajat:**

Bu yerda:

$C_t$  - bir talabaga to'g'ri keladigan xarajat;

$X_{umumiy}$  – umumiy yillik xarajatlarning summasi;

$N_t$  - talabalarning umumiy soni.

**O'qituvchilar mehnat unumdorligi ko'rsatkichi:**

Bu yerda:

$U_o$  – o'qituvchilar mehnat unumdorligi;

$S_t$  – yil davomida o'tilgan umumiy dars soatlari;

$O_q$  – o'qituvchilar soni.

**Grantlar ulushi:**

Bu yerda:

$G_u$  – grantlar ulushi;

$G_{tushum}$  – grantlar asosidagi tushumlar summasi;

$X_{umumiy}$  – umumiy xarajatlarning summasi.

**1 – rasm. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy samaradorlikni baholovchi asosiy formulalar modeli**

Mazkur jadval asosida oliy ta'lim muassasalari xarajatlarning tarkibi, ustuvorliklari va tahliliy ko'rsatkichlari shakllantiriladi. Ushbu ko'rinishda xarajatlarning strukturasi vizual tarzda


aks ettirilgan bo'lib, har bir yo'nalish bo'yicha moliyaviy oqimlarni aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish va ustuvorliklarni qayta ko'rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2 - rasm. Xarajat turlari bo'yicha namunaviy jadval va grafik tahlil (2024-yil)

| Xarajat turi                      | Miqdori (mln so'm) | Ulushi (%) |
|-----------------------------------|--------------------|------------|
| O'qituvchilarga ish haqi          | 15 000             | 35         |
| Infratuzilma xarajatlari          | 10 000             | 23         |
| Ilmiy tadqiqot loyihalari         | 5 000              | 12         |
| Simulyatsiya markazlari           | 7 000              | 16         |
| Ma'muriy xarajatlar               | 3 000              | 7          |
| Boshqa (trening, o'quv adabiyoti) | 3 000              | 7          |
| <b>Jami</b>                       | <b>43 000</b>      | <b>100</b> |

Statistik ma'lumotlar asosida xarajatlarning dinamikasini yillik kesimda taqqoslash orqali o'zgaruvchan ehtiyojlarga moslashtirilgan moliyalashtirish siyosati ishlab chiqiladi. Formulalar esa samaradorlikni baholashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi grafikda xarajatlarning tuzilmasi vizual ko'rinishda taqdim etilgan (2-rasm):



## 2 - rasm. 2024-yilda TTA Urganch filialining budget xarajatlarning asosiy yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti (%) [4]

Mazkur grafik orqali xarajatlarning tarkibida qaysi yo'nalishlar ustuvor ekanligi aniqlanadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalariga resurslarni qayta taqsimlash, samarali yo'naltirish va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali (TTA UF) 2024-yil uchun O'quv-simulyatsiya saqlash va rivojlantirish bo'yicha xarajatlarning quyidagicha rejalashtirilgan (1-jadval):

### 1 - jadval.

## 2024-yilda TTA UF O'quv-simulyatsiya markaziga ajratilgan xarajatlar turlari bo'yicha taqsimoti (mln so'mda) [3]

| Xarajat yo'nalishi            | Miqdori (mln so'm) |
|-------------------------------|--------------------|
| Simulyator va jihozlar xaridi | 2 500              |
| Texnik xizmat va remont       | 1 000              |
| Malaka oshirish va treninglar | 800                |
| O'quv materiallari            | 500                |
| Baholash platformalari        | 300                |
| <b>Jami</b>                   | <b>5 100</b>       |

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, asosan zamonaviy jihozlar xaridi va texnik xizmat xarajatlari ustunlik qiladi. Bu holat simulyatsiya markazining texnologik zamonaviyligiga qaratilayotgan e‘tiborni ko‘rsatadi. Moliyaviy samaradorlikni oshirish uchun esa baholash platformalari va malaka oshirishga ajratiladigan mablag‘larni tizimli ravishda ko‘rib chiqish lozim.

## 2 – jadval.

**TTA UF O‘quv-simulyatsiya markazi xarajatlarining 2020 va 2024-yillardagi taqqoslamasi [4]**

| Xarajat yo‘nalishi            | 2020-yil (mln so‘m) | 2024-yil (mln so‘m) | O‘sish foizi (%) |
|-------------------------------|---------------------|---------------------|------------------|
| Simulyator va jihozlar xaridi | 1 850               | 2 500               | +35.1            |
| Texnik xizmat va remont       | 600                 | 1 000               | +66.7            |
| Malaka oshirish va treninglar | 700                 | 800                 | +14.3            |
| O‘quv materiallari            | 350                 | 500                 | +42.9            |
| Baholash platformalari        | 200                 | 300                 | +50.0            |
| <b>Jami</b>                   | <b>3 700</b>        | <b>5 100</b>        | <b>+37.8</b>     |

Tadqiqotlarimiz davomida 2-jadvalda Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali O‘quv-simulyatsiya markazi uchun ajratilgan asosiy xarajat yo‘nalishlari bo‘yicha 2020 va 2024-yillar kesimidagi taqqoslash keltirilgan.

Ushbu tahlildan ko‘rinadiki, barcha yo‘nalishlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Eng katta o‘sish texnik xizmat (66.7%) va baholash platformalari (50%)ga to‘g‘ri kelmoqda, bu simulyatsiya markazining texnologik infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik yo‘nalishni ko‘rsatadi. Bu dinamik tahlil kelgusi yillarda ham investitsiya prioritetlarini belgilashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida xarajatlarni rejalashtirish tizimi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta‘minlovchi omil, balki ta‘lim sifatini oshiruvchi, ilmiy-innovatsion salohiyatni kuchaytiruvchi, boshqaruvda shaffoflikni ta‘minlovchi va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni mustahkamlovchi strategik vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu tizim orqali resurslardan oqilona foydalanish, byudjet intizomini kuchaytirish, natijadorlikka asoslangan yondashuvni joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada oliy ta‘lim muassasalari zamonaviy, ochiq, samarali va xalqaro standartlarga mos boshqaruv modeliga ega bo‘lishga intiladi.

## References:

### Используемая литература:

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2020). *Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. Qaror №824, 31-dekabr 2020-yil, Toshkent: Vazirlar Mahkamasi nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). *Oliy ta‘lim tizimini bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillikka o‘tkazish to‘g‘risida* PQ-4563-sonli qarori.

3. Tashkent Medical Academy, Urganch branch (2020). *Simulyatsiya markazi uchun yillik xarajatlar smetasi (2020-yil yakuni)*. Ichki hujjat, Urganch: TTA Urganch filiali.
4. Tashkent Medical Academy, Urganch branch (2020-2024). *Simulyatsiya markazi uchun yillik xarajatlar smetasi (2020 va 2024-yil yakuni)*. Ichki hujjat, Urganch: TTA Urganch filiali
5. OECD (2021). *Public spending on education: Efficiency, effectiveness and equity*. OECD iLibrary. Available at: <https://www.oecd-ilibrary.org>